

**TA'LIM OLISH JARAYONIDA KLASTER METODINING
AFZALLIKLARI VA ILMIY TAHLILI***Axmedova Muhayyo Shavkatovna**Samarqand shahar, Quyi Xujasoat mahallasi*

Annotatsiya:Maqolada ta'lim metodlari, klasterli yondashuv va uning xususiyatlari, ta'lim muassalarining rivojlanishida ta'lim klasteri metodining afzalliklari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Klaster, ta'lim klasteri, metod, axborot manbalari

Abstract :The article discusses teaching methods, cluster approach and its features, the advantages of the cluster method of education in the development of educational institutions.

Keywords: Cluster, education cluster, method, information sources

KIRISH Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat bo'lgan jarayondir.

Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa shaxsning ya'ni ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iboratdir. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o'qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Metod – grekcha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Ta'lim metodini(usulini) - ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo'l-yo'rig'i sifatida ta'riflash mumkin.

Ta'lim modelini esa bir yoki bir nechta ta'lim metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta'lim jarayonini amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin. Ta'lim metodi -bu ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo'lyo'rig'idir.

“Metod” yunoncha soʻz boʻlib “yoʻl” maʼnosini anglatadi. Taʼlim metodi taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir.

Taʼlim metodlari oʻqitishning oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga erishish usullari hamda oʻquv materialini nazariy va amaliy jihatdan yoʻnaltirish yoʻllarini anglatadi.

Oʻqitish metodlari taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatining qanday boʻlishi, oʻqitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda oʻquvchilar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

Hozirgi vaqtda taʼlim tizimida mavjud boʻlgan resurslardan samarali foydalanish, tashqi va ichki omillarga muvaffaqiyatli qarshilik koʻrsatishga imkon beradigan, maktablarni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlaridan biri klasterli yondashuvdir.

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda boʻlgan taʼlim, ilmiy, injiniring, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uygʻunlashtirish – innovatsion ishlabchiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yoʻnaltirishdan iborat.

“Klaster” nazariyasining asosi boʻlib, Alfred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan “Iqtisodiyot prinsiplari” nomli asarida (1890) ixtisoslashgan tarmoq sohalarning alohida hududlarda uygʻunlashishi toʻgʻrisidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Uning ilmiy xulosalari boʻyicha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi subʼektlarni hududiy uygʻunlashuvi:

- malakaviy mehnat resurslarining borligi;
- taʼminotchi va qoʻshimcha sohalarning oʻsishi;
- har-xil firmalarni ishlab chiqarish jarayonining turli boʻgʻinlariga ixtisoslashuvining mavjudligiga asoslanganligidir.

Birinchi marta taʼlim klasteri atamasi Maykl Evgeniy Porter tomonidan ilmiy qoʻllanishga kiritildi. U ilmiy ishlarida klasterga shunday taʼrif beradi: "klaster - bu bir-biriga bogʻlangan kompaniyalar, ixtisoslashgan etkazib beruvchilar, xizmat koʻrsatuvchi provayderlar, tegishli sohalardagi firmalar, shuningdek, maʼlum sohalardagi faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan, raqobatlashadigan, lekin shu bilan birga birgalikdagi ishlarni olib boradigan tashkilotlardir.

Maykl Porter nazariyasiga koʻra, klaster geografik jihatdan qoʻshni boʻlgan oʻzaro bogʻliq kompaniyalar (yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) va muayyan sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (taʼlim muassasalari, davlat organlari, infratuzilma korxonalarini) guruhidir deb izoh beradi.[1]

Tarmoqlar metodi (Klaster) texnologiyasi mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni oʻrgatishga

qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi.

1. Katta o'lchamdagi qog'oz yoki doskaning o'rtasiga mavzuga doir so'z yoziladi.
2. O'quvchilar ushbu so'z bilan bog'liq xayolga kelgan so'z va jummalarni uni atrofiga yoza boshlaydilar.
3. Yangi g'oyalar paydo bo'lishi bilan xayolga kelgan so'zlar ham darhol yozib qo'yiladi.
4. So'zlarni yozish jarayoni o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so'z va g'oyalar tugaguncha davom etadi[2].

Klasterlarga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur.

1. Xayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e'tibor bermasdan yozib borish.
2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermaslik.
3. Vaqt tugaguncha, iloji boricha to'xtalmasdan yozish.
4. Iloji boricha ko'proq bog'lanishlar hosil qilishga harakat qilish.
5. G'oyalar va so'zlar sonini cheklab qo'ymaslik.

Klaster atamasi ingliz tilidan tarjima qilingan "klaster" - to'da ma'nosini anglatadi.

Shuningdek, klasterni tizim deb ham hisoblash mumkin, ushbu tizim element qo'shilishi natijasida uning ishlashi yaxshilanadigan va tizimdan bir elementni olib tashlash halokatli oqibatlariga olib kelmaydigan maxsus turdagi tizim bo'lib, olib tashlangan element tizim yaxlitlikni buzmaydi. Ta'lim sohasidagi klaster munosabatlarining eng oddiy namunasi - bu maktab va bolalar bog'chasining o'zaro ta'sirini keltirish mumkin[3].

MUHOKAMA

Ta'lim klasterining elementlari - bu tashkilot (universitet, biznes tuzilmasi, ta'lim muassasasi va boshqalar) yoki uning alohida tuzilmalari vazifasini hal qilishda ishtirok etadigan tuzilmalarning kombinatsiyasi bo'lishi mumkin. Ta'lim klasteri ishtirokchilarining tarkibini (uning elementlarini) vaziyatga qarab to'ldirilish mumkin.

Maktab infratuzilmasi - zamonaviy maktab infratuzilmasini ta'minlash bo'yicha chora -tadbirlar ro'yxati turli sohalarda ta'lim muassasalari va tashkilotlar, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, hordiq, biznes va boshqa muassasalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishni o'z ichiga olishi kerak. Infratuzilma ta'lim makonining o'lchamlari va boshqa topologik xususiyatlarini belgilaydi, bu ta'lim xizmatlarining hajmi, ta'lim ma'lumotlarining imkoniyatlari va intensivligi bilan tavsiflanadi[4].

Ta'lim klasteri - bu maktab infratuzilmasini tashkil etish usullaridan biri, klublar - bu infratuzilmaning elementlari.

Klasterni shakllantirish jarayoni sheriklar o'rtasida ehtiyojlar, texnologiyalar haqida ma'lumot almashishga asoslangan. Klasterli yondashuvda klasterning barcha a'zolari uchun turli aloqa vositalari yordamida erkin ma'lumot almashish va yangiliklarni tez tarqatish imkoniyati mavjud.

Klasterli yondashuv metodining rivojlanishini belgilovchi muhim omillaridan biri uning tadqiqot tashkilotlari bilan aloqaga asoslanligidir.

Klaster munosabatlarining asosiy belgilari:

- izchillik;
- yaxlitlik; - sinergik.

Sinergistik yondashuvni tizimli yondashuvning bir qismi sifatida ham qarash mumkin, bu yondashuvni o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini anglash va o'zini o'zi tashkil etish g'oyalari ustun bo'lgan ilmiy tadqiqotning mustaqil sohasi deb ham hisoblash mumkin.

Ta'lim klasteri ichidagi o'zaro ta'sir yo'nalishi - bu ma'lum bir loyiha doirasida va ma'lum bir davr mobaynida klasterning alohida elementlari o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish yo'lidir.

E.N.Semikin so'zlariga ko'ra, klaster ta'rifida bir nechta asosiy xususiyatlarni ajratish mumkin:

- klasterda har doim bir nechta element mavjud;
- bu elementlarning barchasi bir hil bo'lishi kerak;
- bu elementlar birgalikda ishlaydi;
- ishni ular bitta elementdan ko'ra samaraliroq bajaradilar;
- natija nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham farq qiladi; - bu samaradorlikni baholash mumkin bo'lgan ma'lum mezon mavjud.

Ta'lim klasterini yaratish uchun zarur resurslarni ajratish kerak.

Inson resurslari: turli tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilishdan manfaatdor bo'lgan ta'lim muassasalari rahbarlari; maktab klublari yoki kattalar va bolalarning boshqa uyushmalarining ishini tashkil etishga tayyor bo'lgan ijodiy o'qituvchilar. *Axborot manbalari:*

- ta'lim klasterining barcha a'zolari va barcha a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar banki;
- ta'lim klasteriga kiritilgan barcha sub'ektlar va tashkilotlarning axborot oqimlarini shaharning umumiy axborot muhitiga kiritish.

Tashkiliy shartlar:

- innovatsion pedagogik faoliyatning markazida to'plangan tashkilot vakillarini o'z ichiga olgan tarmoq tuzilmasini aniqlash, yaratish;
- klublar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ta'lim klasteri tarkibidagi barcha elementlarning o'zaro aloqasi;

- ta'lim klasterini rivojlantirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlari bo'yicha muntazam marketing tadqiqotlari.

Materiallar va texnik shartlar:

Har bir ta'lim muassasasi ma'lum bir loyihani, ta'lim klasteri doirasidagi faoliyat yo'nalishlarini amalga oshirish uchun mavjud moddiy - texnik bazadan foydalanish imkoniyatiga ega[4].

XULOSA

Umumta'lim muassasasining rivojlanishida ta'lim klasterining afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

➤ Ta'lim muassasasi uchun yanada tartibli tizimga (klasterga) birlashish shuningdek, boshqa tashkilotlarni ham jalb etish.

➤ Klasterlarni shakllantirish jarayoni axborot almashishga asoslangan. Sheriklar o'rtasidagi ehtiyojlar, resurslar va texnologiyalar barcha ishtirokchilar uchun turli kanallar orqali erkin ma'lumot almashish va yangiliklarni tez tarqatish imkoniyati mavjuddir.

➤ Klasterning rivojlanishini belgilovchi muhim omillar - uning diversifikatsiyasi va innovatsionligi hamda, klasterning tadqiqot tashkilotlari bilan aloqalaridir.

➤ Turli sohalardagi sheriklar uyushmalarining (klaster ichida) ichki resurslardan samarali foydalanish qobiliyati asosiy ahamiyatga ega.

➤ Klaster ta'lim tizimiga sarmoya jalb etishda ijobiy rol o'ynaydi va h.k[5].

REFERENCES

1. Kuralov, Y. A. (2021). ELEKTRON RAQAMLI IMZO ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI (RSA, ELGAMAL, DSA). *Academic research in educational sciences*, 2(5), 428-438.
2. Abdullaevich, K. Y. (2020). Development of geometric creativity of secondary school students by computer. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(2), 4572-4576.
3. Boymurodov, A. K. (2020). PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE CLUSTER METHODS IN TEACHING COMPUTER SCIENCE IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM OF TASHKENT REGION. *Theoretical & Applied Science*, (7), 308-311.
4. Боймурдов, А. Х. (2021 г.). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНООГИЯЛАРИ ВА ИНТЕРФОАЛ МЕТОДЛАР
5. ИНТЕГРАТСИЯСИ. *Академические исследования в области педагогических наук*, 2 (3).
6. Abdukarimovich, G. N., & Gofurovich, A. Z. (2021). GENERAL
7. CHARACTERISTICS OF SYSTEMS WITH REDUCED OBJECTS. *WEB OF*

9. *SCIENTEFIC: International scientefic research journal*, 2(5), 557561.
10. Allamova, S. S., & Sultanov B. (2021). INFORMATION TECHNOLOGIES IN
11. THE CONTEXT OF A COMPETENCE APPROACH. *Экономика и социум*,
12. 3(82), 755-759.
13. Boymurodov, A. (2020). INTEGRATION OF GENERAL EDUCATIONAL
14. SCHOOLS AND HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE
15. INNOVATIVE CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION. *European*
16. *Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(8), 1-5.
17. Khurramov, A. J., Seytov, A. J., Azimkulov, S. N., Sherbaev, M. R.,
18. Kundaybergenov, A. A., & Khasanova, S. K. (2021). Optimal control of pumping
19. station operation modes by cascades of the Karshi main canal. *International Journal*
20. *of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 8(4), 17177-17185.
21. Makhmudova, D. M., & Khurramov, A. J. (2021). Improvement of Technique of
22. Designing and Teaching Learning Process in the course “Methods of Teaching
23. Mathematics. *International Journal of Innovative Technology and Exploring*
24. *Engineering (IJITEE)*, 9(2), 5244-5249.
25. Melievna, M. D., & Abdullaevich, K. Y. (2020). METHODOLOGY OF
26. DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN STUDENTS WITH
27. PROBLEMATIC EDUCATION. *European Journal of Research and Reflection in*
28. *Educational Sciences*, 8(4), 142-146.
29. Sultanov, R., & Xalmetova, M. (2021). IKKI G`ILDIRAKLI TRANSPORT
30. ROBOTLARI HARAKATINI DASTURLASH. *ACADEMIC RESEARCH IN*
31. *EDUCATIONAL SCIENCES*, 2(2), 108-114.
32. Xurramov, A. J., Boymurodov, A. K., & Xoluqulovich, J. A. (2021).
33. EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND THEIR QUALITY
34. ASSESSMENT. *European Journal of Research and Reflection in Educational*
35. *Sciences*, 8(12), 162-166.
36. АЗИМҚУЛОВ,, С. (2021). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ИННОВАЦИОН
37. ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ТАШКИЛ КИЛИШДА
38. ҚУЛЛАНИЛАДИГАН ЎҚИТИШ УСУЛ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *О‘zMU*
39. *xabarlari*, 54-56.
40. Хуррамов, А. Ж., Махкамова, М. У., & Юсупов, А. И. (2021). ФОРСАЙТ –
41. ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ КЕНГАЙТИРИШ ОМИЛИ
42. СИФАТИДА. *ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES*, 2(4),
43. 694-701.
44. ЮСУПОВ, М., & АБДРУРАИМОВ, Ж. Ф. (2021). ЧИСЛЕННОЕ
45. МОДЕЛИРОВАНИЕ НЕЛИНЕЙНЫХ ЗАДАЧ НАСЛЕДСТВЕННОЙ
46. УПРУГОСТИ. *International Journal of Innovative Research in Science,*
47. *Engineering and Technology (IJIRSET)* , 10(6), 6004-6010.